ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

ISHTIXON SHEVASINING O‘Z VA O‘ZLASHMA QATLAM LEKSIKASI

Sadoqat Rajabova [1]

Abstrakt

Ushbu maqolada Samarqand viloyati Ishtixon tumanida istiqomat qiluvchi o‘zbeklashgan etnik arablar shevasining leksik tarkibi tahlil qilinadi. Tadqiqotda sheva lug‘at boyligining ikki asosiy qatlami — umumturkiy va o‘zlashma leksik qatlamlar ko‘rib chiqilgan. O‘z qatlam leksikasini fors-tojikcha va arabcha so‘zlarga ta’siri fonetik, leksik-semantik xususiyatlari aniqlanib, ularning adabiy tilga nisbatan farqli jihatlari misollar asosida yoritilgan. Maqolada shuningdek, maqolada fors-tojikcha va arabcha elementlarning sheva tizimiga singib ketishi jarayoni, ularning tarixiy shakllanish omillari (etnik arablarning o‘zbek muhitiga integratsiyasi, madaniy va diniy aloqalar, yonma-yon yashash natijalari) ham batafsil tahlil etilgan. Bundan tashqari o‘zlashma so‘zlarning fonetik-morfologik moslashuvi, semantik o‘zgarishlari, sheva ichidagi sinonimik munosabatlari (o‘z va o‘zlashma qatlamning parallel qo‘llanilishi) alohida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi – Ishtixon shevasi leksik qatlamini qiyosiy tahlil qilish, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlash va adabiy til bilan munosabatlarini ochib berishdir. Natijalar o‘zbek dialektologiyasi, leksikografiyasi va til tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shevalarni saqlash va adabiy tilni boyitish masalalarida amaliy qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *Ishtixon shevasi, o‘zlashma leksika, umumturkiy so‘zlar, fors-tojikcha qatlam, arabcha o‘zlashmalar, fonetik xususiyatlar, etnik arablar.*

Kirish

O‘zbek shevalarining tarixiy taraqqiyoti leksik boyligi, madaniy merosni aks ettiruvchi muhim birlik ekanligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda tilshunoslikda dialektal leksikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda, chunki shevalar adabiy tilni

[1] *Sadoqat Rajabova* – Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-pochta: sadoqatrajabova1993@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0004-3077-7010
Iqtibos uchun: *Rajabova S.R.* 2025. “*Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi*”. O‘zbekiston: til va madaniyat: Folklorshunoslik va Shevashunoslik. 2. 116 -128. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/RGIP3007

boyitish, til tarixini tahlil qilish va etnolingvistik jarayonlarni ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Samarqand viloyati Ishtixon tumani shevasi o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari bilan alohida e’tiborga loyiqdir. Hudud shevasi Samarqand dialektal zonasiga kiritiladi. Bu hududda asrlar davomida o‘zbeklar birgalikda o‘zbeklashgan etnik arablarning ixcham guruhlari istiqomat qiladi. Ularning shevasi o‘zbek tiliga singib ketgan bo‘lishiga qaramay, unda arab va fors-tojik tili elementlari (unsurlari) saqlanib qolgan. Ishtixon shevasi o‘z va o‘zlashma leksik qatlamlarining murakkab o‘zaro ta’sirini yaqqol namoyon etadi.

O‘zbek shevalari leksikasida ham tekshirilayotgan qatlam 2ga 1) umumturkiy leksik qatlam 2) o‘zlashgan leksik qatlamlardan iborat.

1) umumturkiy leksik qatlam. Turkiy tillar oilasi dunyo bo‘ylab millionlab insonlar tomonidan so‘zlashiladigan, qadimiy ildizlarga ega bo‘lgan tillar majmuasidir. Ushbu tillarga o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, turk, ozarbayjon, tatar, boshqird, qoraqalpoq, turkman va boshqa ko‘plab tillar kiradi. Bu tillarning har biri o‘ziga xos rivojlanish yo‘liga ega bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi muhim xususiyatlardan biri — bu umumturkiy so‘zlar hisoblanadi. Ushbu qatlamga kiruvchi so‘zlar haqida N.A. Baskakov “Turkiy tillar asosiy leksik fondining xarakterli xususiyati uning barcha turkiy tillar uchun umumiyligidir”[Baskakov, 1969: 118] deb fikr keltirib o‘tgan edi. Bu fikrni Sh. Shoabdurahmonov “ o‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lganligi uchun o‘zbek tiliga va uning shevalariga xos bo‘lgan ko‘pgina so‘zlar boshqa turkiy tillar lug‘at sostavidagi ko‘p so‘zlar bilan etimologik birlikka (o‘xshashlikka)ega ”, [Shoabdurahmonov, 2007] - deb N.A. Baskakovning fikrini qo‘llab quvvatlagan edi. Umumturkiy so‘zlar turkiy xalqlarning yagona tarixiy ildizga ega ekanligini ko‘rsatibgina qolmay, balki ularning o‘zaro madaniy aloqalarini ham ochib beradi. Qadimiy turkiy yodgorliklarda — masalan, O‘rxon-Enasoy bitiklari, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk” kabi asarlarda uchraydigan ko‘plab so‘zlar bugungi kunda ham turkiy xalqlar tilida faol qo‘llanmoqda. Umumturkiy so‘zlar odatda insonning kundalik hayoti, tabiat, tana a’zolari, asosiy harakatlar, qarindoshlik munosabatlari, vaqt va makon bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi. Bunday so‘zlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular fonetik yoki morfologik farqlar bo‘lsa-da, semantik yaqinlikni saqlaydi. Masalan:

O‘zbek (Ishtixon shevasi)	Qozoq	Turk	Qirg‘iz
qara	qara	kara	Qara
men	men	ben	Men

baš	bas	baş	Bas
jüräk	ǯüräk	yürek	ǯüräk

Bundan shunday xulosa qilsak bo‘ladiki, bunday o‘xshashliklar shunchaki emas, balki barcha turkiy tillar bitta oila bobo tilga mansub bo‘lib negizi bir xil ekanligidan dalolat beradi.

Shevalar tarkibidagi qarindosh-urug‘chilik terminlar, fe’llar, sonlar, turli xil belgi bildiruvchi so‘zlarning ko‘pchiligi umumturkiy so‘zlar tarkibiga kiradi va bu so‘zlarning ko‘pchiligi boshqa turkil tillar bilan o‘xshash hisoblanadi.

2) o‘zlashma leksik qatlam. Samarqand viloyati Ishtixon tumani etnik arablar shevasida ham davr nuqtayi nazari bilan qaraydigan bo‘lsak, sof turkiycha so‘zlardan tashqari fors-tojikcha, arabcha, rus va rus tili orqali boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar soni talayginani tashkil etadi. Nafaqat til balki hudud shevalarining har birida ham bunday jarayon ro‘y bergan.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ma’lum vaqt oralig‘ida Markaziy Osiyo hududida fors-tojik tili yetakchilik qilgan bo‘lib, asosiy muloqot tili hisoblangan. Shu sababli savdo-sotiq, kundalik turmush tarzi, davlat idoralari, ilm-fan deyarli hayotning barcha jabhalarida bu til o‘zidan sezir izlarini qoldirgan hisoblanadi. VIII-IX asrlarda arab tilining tasiri yuqori bo‘lganligi uchun arabcha so‘zlar ham leksikamiz tarkibining ajralmas bir bo‘lagi sifatida o‘z o‘rnini egallab oldi. Bundan tashqari ma’lum bir shart – sharoitlar taqazo bilan shevalarga rus tili va u orqali turli tillardan o‘zlashgan so‘zlar lug‘at tarkibimizdan chuqur joy egallab oldi. Bu o‘zlashma so‘zlar ummum turkiy so‘zlar bilan bir o‘rinda juda faol tarzda muloqot materiali hisoblanadi. Ishtixon tumani etnik arablar shevasida ham bunday o‘zlashmalar faol o‘rinni egallaydi. Quyida mana shunday leksik qatlamlarni o‘rganib tadqiq qilishga harakat qilindi.

Asosiy qism

Fors-tojikcha leksik qatlam. Markaziy Osiyo hududida qadim-qadimdan o‘zbeklar va tojiklar qo‘shni bo‘lib yashashgan. Turli xil madaniy-ma’rifiy va savdo-sotiq, quda andachilik aloqalarini o‘rnatishgan. Aralash holda istiqomat qilishgan. Ma’lum bir davrda esa asosiy muloqot tili ham hisoblangan. Bugungi kunda ham ushbu millat va til vakillari yurtimizning Samarqand, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Farg‘ona, Qashqadaryo va boshqa bir qancha hududlarda biz o‘zbeklar bilan birga istiqomat qilishadi. Shunday qilib bugungi kunga kelib fors-tojik tilining elementlari tilimizning ajralmas mulkiga aylanib qolgan. Shevalarda tilning ushbu o‘zlashma qatlami yirik monografik tadqiqot sifatida alohida yoritilmagan, ammo shevalarni tadqiq etishda ko‘pgina taqiqotchilar o‘z ishlarida ushbu jihatni

qisman yoritib o‘tishgan. V.V. Reshetov [Reshetov, 1978], Sh. Shoabdurahmonov [Shoabdurahmonov, 1969], B. Jo‘rayev [Jo‘rayev, 1961], M. Mirzayev [Mirzayev, 1985], S. Rahimov [Rahimov], T. Sodiqov [Sodiqov, 1968], N Shoimova [Shoimova, 1999] va boshqa ko‘pgina tadqiqotchilarning ishlari shular jumlasidandir. Bu tadqiqot ishlarida o‘rganilgan shevalar tarkibidagi fors-tojik so`zlarning leksik, fonetik o‘zgachaliklar u yoki bu tarzda yechimini topishga e’tibor qaratilgan.

O‘zlashtirilgan fors-tojikcha so‘zlar salmog‘i Ishtixon tumani etnik arablar shevasida ham alohida bir qatamni tashkil etadi. Chunki Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo singari hududlar kabi Samarqand shevasida ham ikki tilliylik mavjud. Lekin Samarqand viloyatining aynan bu hududida saqlanib qolmagan. Sheva vakillari so‘zlashuv tilida aynan o‘zi holida yoki ma’lum fonetik jarayonga uchragan holda saqlanib qolgan.

Ishtixon etnik arablari yashaydigan hududda qo‘llaniluvchi fors-tojikcha so‘zlar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) o‘zbek adabiy tilda qo‘llaniluvchi fonetik o‘zgarishga uchramagan so‘zlar : *gul, shabnam, oftob, panja, bahor, begona, gilos, dil, diydor, zambil, dona, dori, yaxna, mezbon, mehmon, zo‘r, olcha, tog‘ora, sedana, tilla* va boshqalar. 2) o‘zbek adabiy tilda qo‘llaniluvchi fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar :

	Shevada	**Adabiy tilda**
	Ärvä	Arava
	Apsis	afsus
	bevaš	bebosh
	Goš	go‘sht
	däröv	darrov
	deval	devor
	zänjil	zanjir
	Sus	sust
	šälvir	shalvar
	Käsä	kosa

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ko‘pchiligi fonetik qonuniyatga bo‘ysungan holda qo‘llaniladi. Ularning anchagina qismi o‘zbek adabiy tilida va boshqa o‘zbek shevalarida ham uchrashi mumkin. Bu farqlar quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Fors-tojikcha o‘zlashgan so‘zlar boshida, o‘rtasi va oxrida keladigan “f” tovushi “p” ga o‘xshab talaffuz qilinadi: *fotiha – patiha, farzand – parzan, oftob – aptap, lof – lap, telifon – tilpan, xafa –xapa*

va.h.k.

2. Fors- tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlar tarkibidagi “b” tovushi “p”ga oʻxshab talaffuz qilinadi: *abzal-äpzäl, ayb-äjp, zardob –zärdäp , namakob – nämäkäp, girdob – girdap, serob – serap, gulob – gulab* va.h.k.

3. Fors-tojikcha oʻzlashgan soʻzlar tarkibidagi “t” tovushi ayrim soʻlar oxirida tushirib talaffuz etiladi: *mast – mäs, gʻisht –γïš, goʻsht – goš, rost – ras, doʻst – dos* va h.k.

4. Fors-tojikcha oʻzlashgan soʻzlar oxirida kelgan jarangli “d” jarangsiz “t” tovushiga oʻzgargan holda talaffuz qilinadi: *mard –märt, omad –amät, baland – bäläntt, dard - dart, daromad- därämät* va h.k.

Ishtixon etnik arablar shevasida fors-tojik tiliga oid soʻzlar quyidagi mavzuiy guruhlar orqali tahlil qilsak yanada yaqqolroq namoyon boʻladi:

Uy-roʻzgʻor nomlarini bildiruvchi soʻzlar: *parda – pärdä, kosa – käsä, tarozi – täräzi, choʻlpi* – čolpï, *chinni* –činni, *xokandoz –xakandaz, xontaxta – xantaxta, toʻrva – torva, tova- täbä, togʻora – taγara, rapida – räpidä, oshxona – ašxana, ombur* – ämbir, *lagan – lägän, karnay – kärnäj, kalit – kälit, zambil- zämbil, dastarxon – dästixan, darvoza – därvaza, gugurt- gürgüt, guruch - gurič* va h.k.

Sabzavot va poliz ekinlarini bildiruvchi soʻzlar: *sabzi – sovzi, sholgʻom* – šälγäm, *turp – türp, bodring – badriŋ, noʻxot – nuxat, mosh –maš, sholi* – šoli, *tarvuz – tariz, loviya - lublä* va h.k.

Oʻsimlik va daraxt nomlarini bildiruvchi soʻzlar: *barg – bäg, pechak – pečäk, beda – bedä, daraxt – däräx, anor* – änar*//* änär, *shox* –šax, *gilos- giläs, anjir* – änjil, *bodom –badam, zardoli – zäldari, olcha –alčä* va h.k.

Diniy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar: *nomoz – nämaz, peshin –pešin, xoʻja –xoǯa, eshon –ešan, doʻzax – dozax, gunoh – gunah, banda – bändä, xufton –xuptan* va. h.k.

Vaqt bilan bogʻliq soʻzlar: *hafta – häptä, choshgoh –čäškä, palla – pällä//pillä, zamon – zämän*, va h.k.

Hafta kunlarini ifodalovchi soʻzlar: *dushanba – düšämmi, seshanba –sešämmi, chorshanba- čäršämmi, payshanba –päjšämmi, shanba – šämbä.*

Fors-tojik tilidan oʻzlashgan qoʻshimchalar: -kar, -kär (-kor) bu qoʻshimcha soʻzga qoʻshilib shu qoʻshilgan soʻzdagi oʻsimlikni oʻstiruvchi shaxs maʻnosini anglatadi: γallakar (gʻallakor) gʻalla yitishtirish bilan shugʻillanuvchi shaxs, šalikar (sholikor) sholi yitishtirish bilan shugʻillanuvchi shaxs, paxtakar (paxtakor) paxta yitishtirish bilan shugʻillanuvchi shaxs ma’nolarini anglatadi va h.k. Bu qoʻshimchaning Samarqand viloyatida ishlatilishi haqida X. Donyorov “-кар (-кор), ғаллакар (ғаллакор), абыкәр (обикор). Koʻrinadiki, -käp (-кор) affiksi sharqiy gruppa shevalarida, asosan, yerga nisbatan ishlatilgan (kasbkorga, odamga nisbatan emas). Sharqiy

gruppa shevalarda yaqin vaqtlargacha kasbkorga (odamga) nisbatan -кор o‘rnida ham –чи affiksi qo‘llangan. Masalan, пахтачы (пахтачи), ғаллачи (ғаллачи). Lekin keyingi vaqtda adabiy til va shahar shevalari tasirida bu affiks sharqiy gruppa shevalarida ham odamga nisbatan qo‘llanilmoqda”[Donyorov, 1979: 81-82]. X. Donyorov –kor va –chi affiksini biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llaniladi deb xulosalagan. Bugungi kunda esa asosan –kor shakli faol qo‘llaniladi.

– dar, -där, -dar ushbu qo‘shimcha ma’lum bir xususiyat yoki o‘zi qo‘shilgan so‘zga egalik ma’nosini ifodalaydi. Ba’zi o‘rinlarda –li va ser- qo‘shimchalari bilan senonim bo‘la oladi šaxdar (shoxdor), bojdar (bo‘ydor), guldar (guldor) va h.k. X. Doniyorov bu qo‘shimcha haqida “Bu affiks, asosan, o‘zbekcha –li affiksi o‘rnida qo‘llanadi. Lekin o‘ziga xos ma’no ottenkasi bor. Ba’zi hollarda bu ottenka mustaqil ma’no kasb etadi. Masalan, шақтар мал (шохдор мол) degan-da shohga ega (shoxli) bo‘lgan mol nazarda tutilmaydi, balki shoxi katta mol nazarda tutiladi”[Donyorov, 1979: 82].

– **ser-** sersu (sersuv), serqatnav (serqatnov) sergäp (sergap) va h.k. Bu qo‘shimcha o‘zi qo‘shilgan so‘zga egalik ma’nosini anglatadi va ba’zi o‘rinlarda –li, ser- qo‘shimchalari bilan sinonimlik hosil qiladi. Sersu olma – suvli olma, sergo‘sht ovqat - go‘shtli ovqat.

– **zär, -zar, -zar** bu qo‘shimcha o‘simliklarga qo‘shilib mana shu o‘simlik ko‘p o‘sadigan joy ma’nosini anglatadi. Masalan, *daraxzar* (daraxtzor) daraxtlar ko‘p ekilgan joy o‘rmondan kichik*, buγdejzar* (bug‘doyzor) bug‘doy ekilgan dala*, bedäzär* (bedazor) beda ekilgan dala va h.k.

– **be-** bu qo‘shimcha o‘zi qo‘shilgan so‘z tarkibidagi mazmun yo‘qligini ifodalaydi: *behäl* (behol), *bemövrid* (bemavrid), *bexavar* (bexabar) va h.k.

– **na-, nä (no-)** nämälim (noma’lum), natoγri (noto‘g‘ri), nätäbi (notabiiy), näinsäp va h.k.

– **be- va no** qo‘shimchalari **–siz** qo‘shimchasi bilan sinonim hisoblanadi. Behold –holsiz, bequvvat – quvvatsiz, noinsof – insofsiz va h.k

– **xana (-xona)** ushbu qo‘shimcha haqida X. Donyorov “-қана (хона) so‘zi sharqiy gruppa shevalarida ko‘proq affiks sifatida qo‘llanadi. Lekin adabiy tilimizdagi qo‘llanilishidan deyarli farq qilmaydi. Masalan: малқана (молхона)” [Donyorov, 1979:82] Misollar: gäzxana – oshxona, aγïlxana – og‘ilxona, atxana – otxona, vanaxana (vannaxona) va h.k.

Shunday qilib sheva tarkibida qo‘llaniluvchi fors-tojikcha so‘zlar ancha faol bo‘lib, barcha sohalarda keng qo‘llaniladi.

Arabcha leksik qatlam. Markaziy Osiyo hududlarini arablar bosib olgandan keyin siyosiy, ijtimoiy, madaniy hamda diniy hayotda ko‘pgina o‘zgarishlar ro‘y bergan. Ushbu hududlarda o‘tkazilgan

islohotlar arab tilining yoyilishi, mavqeyining yuqorilashi, ushbu hududlarda maktab, madrasalarda arabcha ta'limning joriy qilinishi, dinning yoyilishi, diniy kitoblarning ham arab tilida yozilganligi arab tilining keng yoyilishiga sabab bo'lgan. Arab tili Markaziy Osiyo hududida qariyb uch yuz yil mana shunday mavqeyda bo'lgan. Shuning uchun o'zbek shevalarining turli sohalarida ko'pgina arab tilidan o'zlashgan so'zlar mavjud. Ishtixon tumanida istiqomat qiluvchi o'zbeklashgan etnik arablar, avvalgi boblarda ta'kidlab o'tilganidek, bugungi kunda o'z ona tili bo'lgan arab tilida umuman gaplashishmaydi. O'zlari istiqomat qilib turgan hudud shevasini, ya'ni Ishtixon tumanining qipchoq shevasini o'zlashtirgan. Shuning uchun bugungi kunda arab tilidan faqatgina ma'lum darajadagina foydalanishadi, ya'ni o'zbek shevalariga o'zlashgan darajada foydalaniladi.

"O'zbek tilidagi arab tiliga mansub leksik birliklarni chuqur va atroflicha o'rgangan F.A. Abdullayevning yozishiga qaraganda, arab tilidan kirib o'zlashgan so'zlarining taqdiri tarixan turlichadir. Ayrimlari o'zlashib, hozirgi til tafakkurimiz nuqtayi nazaridan boshqa tildan o'zlashganligi sezilmaydi: мәмләкәт, довләт, қалам, вәтән... Arab tilidan kirib kelgan leksik birliklar o'zbek tiliga, xususan, Buxoro o'guz shevalari leksikasiga shu darajada o'zlashib ketganki, biz bunday so'zlarni tamomila o'zlashtirib, o'z so'zimizdek turlayveramiz, yasovchi qo'shimchalar vositasi bilan ulardan yangi so'zlar yasaymiz: *ҳәлвә +чи, пытнә+чи, дово+гәр...* arab tiliga mansub leksik birliklarning asosiy qismi ot turkumiga oid: пәтә, мәл, сәвәп... " [Allaberdiyev, 2018: 34].

N Shoimova Qashqadaryo shevasi leksikasini tadqiqiga oid dissertatsiya ishida ham Qashqadaryo shevasida uchrovchi arabcha o'zlashmalarning ko'pchiligi "...shevalarda esa arab tilidan kirgan so'lar (ammo, lekin, balkim kabi) ba'zi bir yordamchi so'zlardan tashqari, asosan, ot turkumiga xosdir" [Shoimova, 1999: 110].

Samarqand viloyati qipchoq shevalarini taqdiq etgan X Donyorov arab tilidan o'zlashgan so'zlar haqida: " Sharqiy gruppa shevalar leksikasidagi arabcha so'zlarni qo'llashdagi o'ziga xoslik shunda ko'rinadiki, bu shevalarda abstract terminlar juda kam uchraydi. Ularning borlari ham, asosan, diniy-klerikal terminlardir. Masalan, җаннәт *(*жаннат*),* дозақ *(*дўзаҳ*),* гүнә *(*гуноҳ*)*... sharqiy gruppa shevalariga singib ketgan arabcha so'zlar ham anchagina. Masalan: *mulk, meros, ovqat, xabar* kabilar... sharqiy gruppa shevalariga arab tilidan kirgan termin va tushunchalarning ikkinchi gruppasi diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan so'z va terminlardir. Misollar, никә *(*никоҳ*),* пәтә *(*фотиҳа*),* намаз *(*номоз*)...* Arabchadan qipchoq shevalariga kirgan so'z va terminlarning uchunchisi atoqli otlar bilan bog'liq bo'lgan so'z va terminlardir. Misollar: Äптикәрим *(*Абдукарим*),* Äбдирайим *(*Абдураҳим*)..."* [Donyorov, 1979: 78-79]

Ishtixon etnik arablari yashaydigan hududda qo'llaniluvchi

arabcha so‘zlar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) o‘zbek adabiy tilda qo‘llaniluvchi fonetik o‘zgarishga uchramagan so‘zlar : *kibr, käsäl, laqab, mänzärä, mänzil, mulk, näzär, nur, näsl, bädäl* va boshqalar. 2) o‘zbek adabiy tilda qo‘llaniluvchi fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar :

	Shevada	**Adabiy tilda**
	apzal	Afzal
	bälä	Balo
	viʒdän	vijdon
	voxt	Vaqt
	däp	Daf
	ʒovr	jabr
	zürijät	zurriyot
	ixlas	ixlos
	mäjtäb	maktab
	mälim	muallim
	sovab	savob
	ädät	odat
	sayat	soat
	parayat	farog‘at
	sälämät	salomat
	tämäšä	tomosha
	päjdä	foyda
	uväl	uvol

Ishtixon tumani o‘zbeklashgan etnik arablari sheva leksikasida uchrovchi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar quyidagi guruhlarga bo‘lib tahlil qilinadi.

I. O‘zbek adabiy tilidagi arabcha so‘zlardan fonetik jihatdan farq qiluvchi o‘zlashma leksik birliklar:

1. Arabcha so‘zlarning boshi, o‘rtasi va oxridagi “f” tovushi “p”tarzida talaffuz qilinadi [Allaberdiyev, 2018: 35] : *paxr “faxr”, näpäs “nafas”, käpän “kafan”, päläk “falak”, täräp “taraf”, näp “naf”, päjz “fayz”, kulpät “kulfat”, päzilät “fazilat”, päräsät “farosat”, pärraš “farrosh”, pärq “farq” va h.k.*

2.Arabcha leksik birliklar tarkibidagi “tutiq belgisi” (“ayn” tovushi) unli tovushni undosh tovushdan ajratish uchun yoki unli tovushni cho‘zibroq talaffuz qilish uchun qo‘llaniladi. Ishtixon etnik

arablari shevasida bunga to‘liq amal qilinmaydi : *mäsul “mas’ul”, mälim “ma’lum”, mejär “me’yor”, vädä “va’da”, etbär “e’tibor”* va h.k

3. Arabcha leksik birliklar oxridagi “b” tovushi “p” kabi talaffuz qilinadi [Allaberdiyev, 2018: 36]: *kitäp “kitob”, mäjtäp / mäktäp “maktab”, mänsäp “mansab”, jovap “javob”, savop “savob”,* äzäp *“azob”- va h.k*

4. Arabcha leksik birliklar oxridagi “d” tovushi “t” kabi talaffuz qilinadi [Allaberdiyev, 2018: 36]: äht *“ahd”, mädät “madad”, mäčit “masjid”, häsät “hasad”, rät “rad”, ovlät “avlod” va h.k.*

Ishtixon etnik arablari shevasida uchrovchi arabcha birliklar shu kabi fonetik xususiyatlarga ega hisoblanadi. Bu kabi xususiyatlar deyarli barcha hudud shevalarida ham shu kabi ko‘rinishda qo‘llaniladi.

Ishtixon tumani etnik arablari nutqida qo‘llaniluvchi arabcha terminlarni quyidagi mavzuiy guruhlarga bo‘lib tahlil qilamiz:

Diniy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar: ǯännät *“jannat”,* ällä*/ allah/ allah/ “olloh”, dozäh “do‘zah”, mäčit “masjid”,* äzän *“azon”, häläl “halol”, sopi “so‘fi”,* šärijät *“shariat”, nämäz “nomoz”, sälävat “salovat”, kapir “kofir”, tovba “tavba”, din “din”, molla “mulla”, ovlija “avliyo”, tärät “tahorat”, tovba “tavba”, qïjamat “qiyomat”, ehsan “ehson’, talaq “taloq”, nikä “nikoh”, näzr-nijäz “nazr-niyoz”, pätä “fotiha”, duvä “duo”, imam “imom”, tasbih “tasbeh”,* šejtän *“shayton”, va h.k.*

Uy-ro‘zg‘or va xo‘jalikka oid so‘zlar: ärva *“arava”, hämmäm “hammom”, näl “nal”, qulp “qulf”, surpä “supra”, s*ayat *“soat”, savin “sovun”, tavaq “tavoq”,* šäm *“sham”,* γalla *“g‘alla” va h.k.*

Oziq-ovqat mhsulotlari: *kävop “kabob”, nävat “novvot”, xamir “xamir”, xalvä “ holva”*

Maktab, maorifga oid so‘zlar: *mäktäp “maktab”, kitäp “kitob”, mällim “muallim”, muläpä “mulla opa” (ayol o‘qituvchi), xat “xat”, qalam “qalam”, marip “maorif”, xata “xato”, soval “savol”, daris “dars”, midir “mudir”, säväd “savod”, talim “ta’lim”va h.k.*

Savdo-sotiq, kasb-hunarga oid so‘zlar: *sovda “savdo”, mal “mol”, käsät “kasod”, mänsäp “mansab”, qassap “qassob”, pärräš “farrosh”, häräǯät “harajat”, xadim “xodim”, tiǯarät “tijorat”, tavip “tabib”, dällal “dallol”, härbij “harbij” va h.k*

Asr, yil va vaqt bilan bog‘liq tushinchalar: *nähär “nahor”,* äsr *“asr”, voqït “vaqt”, dovir “davr”, movlut “mavlud”, räjäp “rajab”, rämzän “ramazon”,* šäval *“shavvvol”,* šäbbän *“shabbon”, sänä “sana”, häzir “hozir”, hämäl “hamal”,* ävvol *“avval” va h.k*

Davlat, huquq tushunchalarini ifodalaydigan so‘zlar: *dovlat “davlat”, hakim “hokim”, mämläkät “mamlakat”, väkil “vakil”, meräs “meros”* , äskär *“askar” va h.k.*

Belgi-xususiyat hamda holatni ifoalovchi so‘zlar : äblah *“ablah”,* älämzäda *“alamzada”,* äsäbij *“asabiy”,* äpzäl *“afzal”,* älä *“a’lo”, axmaq “ahmoq”, väsväs “vosvos”, zäjip “zaif”, käsäl “kasal”, häläl “ha-*

lol”, sähij “sahiy”, bähil “bahl”, mäkkär “makkor” va h.k.

O‘zaro muomalada qo‘llaniluvchi so‘zlar : ässälämi älejkim *“assalomu alaykum”, säläm “salom”, välejkim* ässäläm *“valaykum assalom”, bäräkälä “barakalla”,* ädät *“odat”, mibäräk “muborak”,* älbätä *“albatta”, mäsälän “masalan”, ovval “avval”, lekin “lekin”, bälkim “balki” va h.k.*

Xulosa. Ishtixon etnik arablari shevasida uchrovchi arabcha birliklar deyarli barcha shevalarga xos hisoblanadi. Bu so‘zlar sheva qonuniyatlariga bo‘ysungan holda ma’lum bir fonetik va semantik jihatdan o‘zgargan va shevaga moslashgan. Ba’zi holatlarda esa o‘z ma’nosida emas butkul boshqa ma’noda qo‘llaniladi. S. Usmonov arabcha o‘zlashmalarni tadqiq qilar ekan quyidagi jihatlarga e’tibor qaratadi: “VIII-IX asrlardayoq so‘zlarning qachonlardir Arabistonda qo‘llangan ma’nolarida bosqa ma’noda qo‘llanishi tez-tez uchraydigan bo‘lib qoldi. O‘zbek tiliga kirib qolgan arabcha so‘zlar o‘zbek tili sharoitida seantik o‘zgarishlarga uchramasligi , ayniqsa,, mumkin emas edi. Masalan, arab tilida “tashqi ko‘rinish ” ma’nosini ifodalagan “*Bashara* ” so‘zi hozir o‘zbek tilida *yuz,bet* so‘zlariga sinonim bo‘lib qolgan… *Kasal* “dangasalik, hushyoqlmaslik”ni bildirsa, o‘zbek tilida kasal “bemor, noxush”ni anglatadi”[Usmonov, 1953: 121-122]

Adabiyotlar

Ashirboyev S. 2021. *O‘zbek dialektologiyasi*. – Toshkent: Nodirabegim.

Баскаков. Н.А. 1969. *Введение в изучение тюркских языков*. – М.: Выешая школа, – С.118.

Шоабдураҳмонов. Ш. *Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари*. – Б. 207.

Поливанов Е.Д. 1928. *Вокализм говора города Самарқанд* // Доклады АН. СССР, М, – №14.

Дониёров Х. 1979. *Қипчоқ диалектларининг лексикаси*. – Тошкент.

Валиев М. 1963. *Ўзбек тилининг Найман шеваси*. – Самарқанд.

Ражабов Н. 1977. *Ўзбек тилининг ғарбий Самарқанд шевалари.* – Самарқанд.

Эгамов В. 1954. *Самарқанд областининг Ғаллаорол шеваси*. – Самарқанд.

Тиллаева З. 2023. *Самарқанд шаҳри ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари*. – С., 2023. – Б.111.

Гребункин А.Д. *Мелкие народности Зарафшанского округо* // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып.2. – М, 1872. – С.113-114.

Қораев С. 1979. *Этнонимика*. – Т.: Ўзбекистон. – С. 12-13.Ражабов Р. 2012. *Ўзбекистондаги араблар тарихи ва*

этнографияси. – Т., – Б. 154.

Чиковани Г.Г. 1988. *Морфологическая структура Кашкадарьинского диалекта арабского языка.* – Тбилиси.

Решетов В.В, Шоабдурахмонов Ш. 1978. *Ўзбек диалектологияси*, – Тошкент, 1978.

Жўраев Б. 1969. *ЮҚори Қашқадарё ўзбек шевалари*, – Тошкент.

Мирзаев М. 1961. *Бухоро ўзбек ва тожик шеваларининг ўзаро муносабати тўғрисида // Ўзбек диалектологиясидан материаллар*. – Тошкент,

Раҳимов С. 1985. *Ўзбек тилининг Сурхондарё шевалари*. – Тошкент.

Содиқов.Т. 1968. *Лекцика говор Тошкентской област*, – Тошкент.

Шоимова Н. 1999. *Ўрта Қашқадарё «Же» ловчи қипчоқ шевалари лекцикаси*, Тошкент.

Аллабердиев А. 2018. *Бухоро ўғуз шевалари лексикаси*. – Т., Б-34.

Усмонов С. 1953. *Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форс ва арабча сўзлар/* Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, – Б. 121-122.

THE LEXICON OF THE NATIVE AND ASSIMILATED LAYERS OF THE ISHTIKHAN DIALECT

Sadaqat Rajabova[1]

Abstract

This article analyzes the lexical composition of the dialect of Uzbekized ethnic Arabs living in the Ishtikhan district of the Samarkand region. The study examines two main layers of the dialect's vocabulary - the general Turkic and assimilated lexical layers. The influence of the native lexicon on Persian-Tajik and Arabic words is determined by the phonetic, lexical-semantic features, and their differences from the literary language are illustrated on the basis of

[1]*Sadokat Rajabova* – PhD student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

E-mail: sadoqatrajabova1993@gmail.com

ORCID ID: https://orcid.org/0009-0004-3077-7010

For citation: *Rajabova S.R. 2025. "The lexicon of the native and adopted layer of the Ishtikhon dialect"*. Uzbekistan: language and culture: Folklore and Linguistics. 2. 116-128. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/RGIP3007

examples. The article also analyzes in detail the process of assimilation of Persian-Tajik and Arabic elements into the dialect system, the factors of their historical formation (integration of ethnic Arabs into the Uzbek environment, cultural and religious ties, and the results of coexistence). In addition, the phonetic-morphological adaptation of borrowed words, semantic changes, and synonymous relations within the dialect (parallel use of native and borrowed layers) were separately considered. The purpose of the study is to conduct a comparative analysis of the lexical layer of the Ishtikhon dialect, determine their interaction and reveal their relationship with the literary language. The results are of great importance in the study of Uzbek dialectology, lexicography, and language history, and can be used in practice in the issues of preserving dialects and enriching the literary language.

Key words: Ishtikhan dialect, borrowed vocabulary, general Turkic words, Persian-Tajik layer, Arabic borrowings, phonetic features, ethnic Arabs.

References

Ashirboyev S. 2021. *O‘zbek dialektologiyasi*. – Toshkent: Nodirabegim.

Баскаков. Н.А. 1969. *Введение в изучение тюркских языков*. – М.: Выешая школа, – С. 118.

Шоабдураҳмонов. Ш . *Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари*. – Б. 207.

Поливанов Е.Д. 1928. *Вокализм говора города Самарқанд* // Доклады АН. СССР, М, – №14.

Дониёров Х. 1979. *Қипчоқ диалектларининг лексикаси*. – Тошкент.

Валиев М. 1963. *Ўзбек тилининг Найман шеваси*. – Самарқанд.

Ражабов Н. 1977. *Ўзбек тилининг ғарбий Самарқанд шевалари.* – Самарқанд.

Эгамов В. 1954. *Самарқанд областининг Ғаллаорол шеваси*. – Самарқанд.

Тиллаева З. 2023. *Самарқанд шаҳри ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари*.

– С., 2023. – Б.111.

Гребункин А.Д. *Мелкие народности Зарафшанского округо* // Русский Туркестан. *Сборник, изданный по поводу политехнической выставки*. Вып.2. – М, 1872. – С.113-114.

Қораев С. 1979. *Этнонимика*. – Т.: Ўзбекистон. – С. 12-13.

Ражабов Р. 2012. *Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси*. – Т., – Б. 154.

Чиковани Г.Г. 1988. *Морфологическая структура Кашкадарьинского диалекта арабского языка.* – Тбилиси.

Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. 1978. *Ўзбекдиалектологияси*, – Тошкент, 1978.

Жўраев Б. 1969. *Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари*, – Тошкент.

Мирзаев М. 1961. *Бухоро ўзбек ва тожик шеваларининг ўзаро муносабати тўғрисида // Ўзбек диалектологиясидан материаллар*. – Тошкент.

Раҳимов С. 1985. *Ўзбек тилининг Сурхондарё шевалари*. – Тошкент.

Содиқов.Т. 1968. *Лекцика говор Тошкентской област*, – Тошкент.

Шоимова Н. 1999. *Ўрта Қашқадарё «Же» ловчи қипчоқ шевалари лекцикаси*, Тошкент.

Аллабердиев А. 2018. *Бухоро ўғуз шевалари лексикаси*. – Т., Б-34.

Усмонов С. 1953. *Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форс ва арабча сўзлар*/ Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, – Б. 121-122.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com